

USMON AZIM HIKOYALARIDA FOLKLORZMLAR

*Annaqulova Subhiya Akbarovna**Termiz davlat universiteti**1-kurs magistranti*

Annotasiya: Ushbu maqoda Usmon Azining nasriy asarlari, hikoyalarining badiiy xususiyatlari tahlil etilgan. Adib hikoyalari orqali uning badiiy mahorati o'rganiladi.

Kalit so'zlar: hikoya, nasr, adib, mahorat, ijod, tasvir, obraz, qahramon, personaj

Usmon Azim bugungi o'zbek adabiyotining, xususan, she'riyatimizning ilg'or va zabardast ijodkorlaridan biridir. Shoir o'zining ijodiy tadrijini yuksaltirib, o'zbek adabiyotini bir vaqtning o'zida she'riy, nasriy va dramatik asarlar bilan boyitib kelmoqda.

Uning ilk nasriy to'plami esa "Jodu" nomi bilan 2003-yilda e'lon qilidi. Adib nasrini asosan hikoya, kinoqissa va esse kabi janrlardagi asarlar tashkil qiladi. Shu bilan birga, yozuvchi badiiy publitsistikaning maqola, adabiy qaydlar, adabiy portret, xotira, suhbat janrlarida ham qalam tebratdi. Adibning yigirmadan ortiq "G'oz", "Sevgi", "Chin do'st", "Birovning umri", "Siz bilmaydigan zamonlarda", "Alpomish va Qorajon", "Ishxonadagi ko'rgazma", "Bir dasta qizil gul" kabi hikoyalar, o'ndan ortiq "Kunduzsiz kechalar" (1998), "Alpomishning qaytishi" (2000), "Bir qadam yo'l" (2002), "O'tgan zamon hangomalari" (2003), "Adibning umri" (2005), "Abdulla Qahhor", "Amir Temur" (2022) dramalarni yaratildi. Adibning ko'plab hikoya va dramalari sahnalashtirilgan. "Alpomish" kinodostoni va "Alisher Navoiy" kinoqissalari e'lon qilingan. "Alpomishning qaytishi" asari uchun muallif 1999-yilning "Eng yaxshi dramaturgi" deb e'tirof etildi.

Usmon Azim faoliyatida san'at: kino va dramaturgiya sohasi alohida ajralib turadi. Uning mashhur "Sevgi" (1998) hikoyasi asosida yaratilgan filmining ssenariysi muvafaqqiyatli deb topilgan. Shoirning yana bir ssenariysi o'zbek xalqining bebaho ma'naviy xazinasini Alpomish eposi asosida ikki qismdan iborat "Alpomish" (2000) filmi ham suratga olindi. Shuningdek, "Yo'qolgan odam" (2008), "Sevgi siri" (2006), "Xiyonat" (2010) badiiy filmlari stsenariysiga ham mualliflik qilgan [2:353].

Usmon Azimning mifologik, diniy-tarixiy obrazlardan ijodiy foydalanish va o'ziga xos poetik mahoratini ilmiy asoslash, yozma adabiyotga va folklorga xos an'anaviy obrazlar hamda badiiy tasvir vositalarining adabiyotimizdagi ko'rinishlarini qiyosiy tahlil etish va ularni zamonaviy nasrda mahorat bilan qo'llash o'zbek adabiyotida, xususan, adib ijodi orqali tadqiq etish adabiyotshunosligimiz oldida turgan muhim masalalardan biridir. Umuman, shoirning badiiy ijod tamoyillaridan biri

sifatida uning ijodiy olamida folklorning taʼsirini, shoir boshqa ijodkorlardan farqli folklor namunalariidan umumli foydalanib, stilizatsiya (“Stilizatsiya (yun. Stylos – mumlangan taxtachaga yozish uchun ishlatilgan tayoqcha; uslub) – muayyan badiiy-estetik maqsadlarni koʻzlab oʻzga bir ijodkor, davr, adabiy yoʻnalish va shu kabilarga xos uslubiy xususiyatlarni qayta tiklashga asoslangan usul” [1:144.] asosida undan yangidan-yangi ijod mahsuli boʻlgan har uchala turdagi asarlar yaratib kelmoqda.

Usmon Azimning yozuvchi sifatidagi ilk hikoyasi “Siz bilmaydigan zamonlarda” va “Gʻoz” – xalqimizning ming yillik maʼnaviy yodgorligi “Alpomish” dostoni taʼsirida yaratilgani alohida qayd etiladi. Adib mazkur hikoyalardan keyin bir qator asarlari jumladan, “Alpomishning qaytishi” dramasi, “Tong otgan taraflarda” dramatik dostonida ham ushbu eposdagi syujet, motiv va obrazlaridan foydalangan. Umuman, Usmon Azimning mazkur yoʻnalishdagi asarlarining barchasiga “Alpomish” qahramonlik dostoni asos boʻlgan, deyish mumkin. Biroq yozuvchi birgina manbaga qayta-qayta murojaat etganda ham mavzu jihatdan yaqin boʻlgan ushbu asarlar qiziqarli va shiddatkor, betakror syujetga egaligi bilan ajralib turadi. Adibning birgina “Gʻoz” hikoyasidagi nasriy ifoda, farzand uchun jonini fido qilgan Ona timsoli, or va gʻururli shakaman mergan, yaxshilikka munosib javob berolgan Alpomish kabi obrazlar tabiiyligi bilan oʻquvchi qalbidan chuqr joy oladi. Adibning baxshiyona yoʻsindagi hikoyalarida – Vatanni asrash, oʻz manfaatidan el yurt manfaati ustun qoʻyish, elparvarlik, olijanob fazilatli boʻlish kabi ezgu gʻoyalar ifodasi aks etadi. Ayniqsa, adib qalbida ham soʻzida ham ezgulik ufurib turadigan baxshilar timsolini yaratadi.

Hazrat Navoiydan tortib, Choʻlpon anʼnanalarini davom ettirgan [4;62] ijodkorning nasriy asarlarida gʻururli, yurtga sadoqat, yorga vafo, doʻstga sodiqlik anʼanayu qadriyatlarini eʼzozlaydigan, ularni muqaddas deb biladigan qahramonlarni uchratish mumkin. Xususan, “Siz bilmaydigan zamonlarda” hikoyasida Haqqul baxshi, Elamon baxshi, “Gʻoz” hikoyasida kampirning oʻgʻli, “Alpomish va Qorajon” hikoyasida Qorajon, Xoliyor baxshi, “Birovning umri” hikoyasida Panji polvon. Bu qahramonlar gʻururi toptalgandan koʻra oʻlimni afzal koʻradi, ona yurt mehrini yurtga sodiqlik burchini doim yetakchi oʻringa qoʻyadi. Xususan, “Gʻoz” hikoyasi yozuvchining gʻurur, or-nomus, onaning farzand uchun jonini ham ayamasi, shu oʻrinda yurtga ham sadoqat hamda axloqiy fazilatlarini shakllantiruvchi asar sifatida ham qimmatlidir. Gʻoz – hikoyada zoʻr ehtirom bilan ilgari surilgan insondagi eng aziz va muqaddas tuygʻular – gʻurur, vijdon, adolat gʻoyasini ham oʻzida ifodalaydi. Yuqorida keltirilgan eʼtiborga molik barcha asarlari xuddi shu muammo tevaragida aylanadi. Bunda bosh maqsad; imon-eʼtiqod, ijtimoiy adolat, sodiqlik kabi tuygʻularni ijodning bosh maʼnaviy muammosi, uning asosiy estetik prinsipi esa –haqiqatni aytish, hayotni murakkabligi bilan koʻrsatishdir.

“So‘z – dunyoning beshinchi unsuri”dir deb yozadi adib “So‘ngso‘zlar” asarida. So‘zga aylanmagan dunyolar yo‘qlik komiga abad cho‘kib ketkanlar”[3:5]. Yozuvchining nasriy asarlarida ko‘rinadiki, uning folklor ta’sirida yozilgan hikoyalarda mahorat bilan davrning ijtimoiy masalalari ham yoritiladi.

Xulosa qilib aytganda, yozuvchining hikoyalari mazmundor, folklore asosida yaratilgan bo‘lib, bu uning ijodiga folklor asosiy manba ekanligini hamda uning yuksak iste’dodi badiiy mahoratini yorqin aks ettiradi.

Adabiyotlar:

1. Adabiyotshunoslik lug‘ati./ Quronov D., Mamajonov Z., SHERALIEVA M. Toshkent: Akadernashr, – 2013. – B.144.
2. Usmon Azim. Jodu. Hikoyalar, esse, dramatik asarlar va kinodoston. – Toshkent: Sharq. , 2003. – B.5-6.
3. Усмон Азим. Сўнгсўзлар. – Тошкент: Илм-зиё заковат, 2020. – Б. 5.
4. Sul-tonqulova, F. (2020). Metaphorical images in Osman Azim poetry. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 04 (84), 537-539. *Soi:* <http://s-o-i.org/1.1/TAS>.
5. Sul-tonqulova F. (2021) Usmon Azim she’riyatida Kuz metaforasi./ So‘z san’ati xalqaro jurnali. 4 jild. №3-son. B. 60-66
6. Sul-tonqulova, F. (2021). Metaphors of colors in Usman Azim poetry. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 02 (94), 350-353. *Soi:* <http://s-o-i.org/1.1/TAS>
7. Yuldashev, N.T. (2019). Tradition and novelty in Chulpan poetry. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 12(80), p.576.
8. Raimova S.(2019) Artistic interpretation of religious and educational issues of uzbek poetry in the period of inde pence.(As an example works of A.Aripov,A.Mahkam and A.Uktam) //ISJ Theoretical and applied sciences. – № 11 (71). – P. 42-44. Impact Factor: 6.6.
9. Raimova S. (2021) Artistic arts in the works of Asqar Mahkam //ISJ Theoretical and applied sciences. – 2021.– № 06. (98). – P. 347-349. Impact Factor: 6.6.
10. Yulduz Hayitova Some strkes to the poem of the Shodmonkul Salom. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 10 (102), 1033-1036.
11. TO‘LIBOYEV, S. (2022). Mustaqillik yillarida o‘zbek-turk adabiyot aloqalari ./Filologik tadqiqotlar Til, adabiyot, ta’lim. 2023, 4. – 84-85